MUSIQA SAN’ATI VA MADANIYATINI O‘QITISHDA O‘QITUVCHINING O‘RNI

Shermatov K.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi professori v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq musiqa san’atini o‘qitishda o‘qituvchining o‘rni, fan doirasida o‘rgatiladigan xalq an’analari, urf-odat va marosimlarning yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati yoritilgan. Xalq og‘zaki ijodi va qo‘shiqchilik an’analarining janr xususiyatlari hamda ularni o‘rgangan olimlarning ilmiy merosi tahlil qilingan. Tarixiy-qiyosiy va tavsifiy tahlil asosida milliy an’analar ruhida tarbiyalashning to‘rt jihati asoslab berilgan, milliy musiqiy merosni saqlash va targ‘ib qilish hamda bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: an’ana, urf-odat, marosim, xalq qo‘shiqlari, musiqa pedagogikasi, o‘qituvchi, milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya.

РОЛЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ОБУЧЕНИИ МУЗЫКАЛЬНОМУ ИСКУССТВУ И КУЛЬТУРЕ

Аннотация. В статье рассматривается роль преподавателя в обучении узбекскому народному музыкальному искусству, а также значение изучаемых в рамках дисциплины народных традиций, обычаев и обрядов в воспитании молодого поколения в духе национальных ценностей. Проанализированы жанровые особенности народного устного творчества и песенных традиций, а также научное наследие исследователей, изучавших их. На основе историко-сравнительного и описательного анализа обоснованы четыре аспекта воспитания в духе национальных традиций; особое внимание уделено сохранению и популяризации национального музыкального

наследия и реформам, проводимым в данной области.

Ключевые слова: традиция, обычай, обряд, народные песни, музыкальная педагогика, преподаватель, национальные ценности, духовное воспитание.

THE ROLE OF THE TEACHER IN TEACHING MUSICAL ART AND CULTURE

Abstract. The article examines the role of the teacher in teaching Uzbek folk music and the importance of the folk traditions, customs and rituals studied within the subject for educating the younger generation in the spirit of national values. The genre features of oral folk art and singing traditions, as well as the scholarly legacy of the researchers who studied them, are analyzed. Based on historical-comparative and descriptive analysis, four aspects of education in the spirit of national traditions are substantiated; special attention is paid to the preservation and promotion of the national musical heritage and to the reforms being carried out in this field.

Keywords: tradition, custom, ritual, folk songs, music pedagogy, teacher, national values, spiritual education.

KIRISH

O‘zbek musiqa san’ati va madaniyatini o‘rgatish hamda uning inson ma’naviyatiga ta’sirini tushuntirish o‘qituvchi zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. O‘qituvchi bu jarayonda yo‘lboshchi bo‘lib, talabalarni xalq merosi bilan tanishtiradi va unga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Ma’naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning eng asosiy masalalaridan biriga aylanib borayotgan hozirgi davrda xalq an’analari va urf-odatlarini nafaqat tiklash, balki ularni yosh avlodni milliy an’analarimiz ruhida tarbiyalash vositasiga aylantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi [1]. O‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy an’analar va urf-odatlar vositasida tarbiyalash masalasi o‘zbek milliy pedagogikasida ham o‘z ifodasini

topgan.

Tadqiqotning maqsadi – xalq musiqa san’atini o‘qitish jarayonida o‘qituvchining o‘rnini, xalq an’analari va qo‘shiqchilik merosining yoshlarni ma’naviy tarbiyalashdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalq qo‘shiqlarini to‘plash va ularning xilma-xil variantlarini yozib olish bo‘yicha yirik hajmdagi ishlar amalga oshirilgan. Xususan, folklorshunos olimlar V.A. Uspenskiy, N. Mironov, I. Akbarov, Y. Rajabiy, M. Yusupov, F. Karomatov va boshqalar xalqimizning musiqiy merosini to‘plashga katta hissa qo‘shganlar [2; 3]. O‘zbek xalq an’analaridan yoshlar tarbiyasida foydalanish masalalariga pedagog olimlardan S. Temirova, O. To‘rayeva, Z. Mirtursunov, M. Ochilov va boshqalar ilmiy oydinlik kiritganlar. Xalq qo‘shiqlaridan tarbiya manbai sifatida foydalanish muammolari bilan A. Hasanov, N. Nurmatov, S. Habibullayeva, F. To‘rayev, R. Tursunov va boshqalar shug‘ullanganlar. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari masalalari E. Qobilovaning darsligida tizimli yoritilgan [4].

Mavzuga oid tarixiy manbalar ham muhim ahamiyatga ega. Mashhur tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida Amir Temur davrida o‘tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida ma’lumotlar keltirgan [5]. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “qo‘shiq” so‘zi adabiy termin sifatida berilib, mazmunan she’r, qasida deb ta’riflanadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Mavzuga oid tarixiy manbalar, folklorshunoslik va musiqa pedagogikasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar o‘rganilib, xalq qo‘shiqlarining janr tasnifi umumlashtirildi hamda ularning ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari pedagogik nuqtai nazardan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalq og‘zaki ijodida til muhim rol o‘ynaydi, chunki til ushbu merosni

ifodalash va kelgusi avlodga yetkazishning eng asosiy vositasi hisoblanadi. Og‘zaki ijodning turlari va janrlari juda keng bo‘lib, uning tarkibiga mif, afsona, rivoyat va boshqa janrlar kiradi. Urf-odat esa an’anadan farqli o‘laroq, insonlarning xalq tomonidan qabul qilingan qonun-qoidalarga qay darajada amal qilishi bilan belgilanadi. Bularga keksa kishilarga izzat-hurmat ko‘rsatish, kattalarning so‘zini bo‘lmaslik, mehmon hurmatini joyiga qo‘yish, to‘y-tomoshalarni urf-odatlarga rioya qilib o‘tkazish kabilar kiradi.

Qadimda Navro‘z bayramida musiqa ikki asosiy vazifani bajargan: bayramning umumiy fonida ijro etiladigan musiqa hamda Navro‘zning maxsus urf va marosimlarini o‘tkazish uchun ijro etiladigan musiqa. Buning uchun musiqachilar maxsus kuylar bastalaganlar. Sosoniylar hukmdori Xusrav II Parvizning saroy musiqachisi, mashhur Borbad Navro‘z mavzusiga atab bir qancha kuylar yaratgan. Ular orasida VI–VII asrlar musiqa madaniyatida keng tarqalgan “Badi Navro‘z”, “Sozi Navro‘z”, “Nozi Navro‘z” kabi kuylar bor.

Dostonlar, ertaklar, mehnat va mavsumiy marosim qo‘shiqlari, asotirlar, naqllar, rivoyatlar, erkalamalar, ovutmachoqlar, yalinchoqlar, guldurguplar, sanamalar, o‘yin-kulgi bilan bog‘liq aytimlar, aytishuvlar, o‘lan, termalar, bolalar qo‘shiqlari, “Ramazon”, “Boychechak”, yomg‘ir, quyosh, yulduz, suv aytimlari, tegishmachoqlar, “Navro‘z”, “Mehrjon”, bahor, yoz, kuz, qish aytimlari, ashulalar, dehqonchilik, chorvachilik, kasb-hunarmandchilik bilan bog‘liq nasriy va nazmiy asarlar xalq musiqa pedagogikasining asosini tashkil etadi [7].

Xalq pedagogikasining tarkibiy qismi bo‘lgan, asrlar davomida yashab kelgan musiqiy pedagogika ajdod-avlodlarning axloqiy, ma’rifiy shakllanishi, kamoloti va jismoniy barkamolligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Uning ta’sir kuchi hayotiyligi, serqirra va sermazmunligi, bevosita xalq tomonidan jonli an’analarda yaratilishi va yashashi, inson muammolarini qamrab olishi hamda tarbiyaning eng dolzarb masalalariga yechim izlashi bilan izohlanadi. U umuminsoniy, umumbashariy g‘oya va maqsadlarga yo‘naltirilgan. Shu bois xalq musiqa pedagogikasi avlodlar tarbiyasining ajralmas qismi sifatida hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Qo‘shiqlar musiqa merosimizda muhim o‘rin tutib kelgan. Faqat to‘y va azadagina emas, balki hayotning har sohasida qo‘shiq insonga ruhiy madad, hamdard va hamroh bo‘lib kelgan. Qo‘shiqlar xalq an’analari, urf-odatlari bilan chambarchas bog‘lanib, ularga fayz kiritadi (“Yor-yor”, “O‘lan”, “Lapar”, “Alla”, “Kelin salom”, “Bayt-u g‘azal”, “Xush kelibsiz”, “Yig‘i”). Qo‘shiq ijrochilari ham janr turiga qarab turlicha nomlanadi: qo‘shiqchi, ashulachi, laparchi, o‘lanchi.

Yosh avlodga milliy ruh bag‘ishlaydigan ulkan ma’naviy merosimizning salmoqli bo‘lagini tashkil etuvchi xalq qo‘shiqchiligining o‘ziga xos an’analari bor. Ular, birinchi navbatda, kuylash uslublari va janrlarning xilma-xilligi bilan belgilanadi. Folklorshunos olimlar mavjud qo‘shiqlarni odatda to‘rtta yirik guruhga ajratadilar: mehnat qo‘shiqlari, mavsumiy marosim qo‘shiqlari, urf-odat qo‘shiqlari, lirik qo‘shiqlar va termalar [7]. Bu janrlarga mansub qo‘shiqlarning xalq milliy ohanglari asosida milliy bezaklar (nola, qochirim, xonish, nolish, salmoq, titratma, farshlag) bilan kuylanishi ularga milliy bo‘yoq, milliy kolorit beradi va qo‘shiqchilik an’analariga xos milliylikni ta’minlaydi.

Milliy an’analar ruhida tarbiyalash har qanday narsani idrok qilish qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi to‘rt jihatni o‘z ichiga oladi:

1. xalq qo‘shiqchiligiga xos xususiyatlar haqida bilimga ega bo‘lish;
2. bu xususiyatlarni o‘z hissiyotlaridan o‘tkazib, ruhiyatida his qilish;
3. bu xususiyatlarni egallab, o‘zlashtirishga harakat qilish va amaliyotda qo‘llash;
4. milliy xususiyatlarni qadrlash, avaylab-asrash va boyitish.

Musiqa olamida odatlarning turlari ko‘p bo‘lib, ular oddiy qaytariluvchi harakatlarni o‘z ichiga oladi va avtomatik tarzda shakllanib takrorlanadi. Musiqiy an’analarning o‘xshashligi ularning yanada takomillashib borishiga asos bo‘lgan. Bunda, ayniqsa, o‘sha davr saroy musiqa san’atining ta’siri yetakchilik qilgan.

Odatga ko‘ra, qo‘shiq kuylashdan oldin ovoz apparatini ishchi holatga keltirish uchun sozlash mashqlari bajariladi. Bu mashqlar ko‘p marotaba takrorlanib, kuylovchiga shu darajada yod bo‘lib ketadiki, ular o‘z-o‘zidan, o‘ylanmasdan qaytariladi, ya’ni odat orqali malakaga aylanadi. Shunday

xususiyatlardan biri unli tovushlarni shakllantirishdir. Xalq qo‘shiqlari o‘ziga xos ochiqroq tarzda kuylanadi. Yoshlarni tayyorlashda xalq qo‘shiqlarini pardali, madaniylashtirilgan tarzda kuylashga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalq qo‘shiqchiligiga xos urf-odat va an’analarni ularning kelajak avlod ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati nuqtai nazaridan tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. O‘zbek xalq an’analari va musiqa san’ati, xususan, qo‘shiqchilik bilan bevosita bog‘liq an’analar yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qo‘shiqchilik an’analari ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan o‘zbekona yuksak insonparvarlik, do‘stlarga sadoqat, Vatanga muhabbat, mehnatga to‘g‘ri munosabat hamda o‘z oriyati, nomusi va vijdonini pokiza saqlash kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Bu jarayonda o‘qituvchi xalq qo‘shiqlarini nazariy tushuntirish bilan cheklanmay, ularni jonli ijro, tinglash va tahlil orqali talabalar ongiga singdiruvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Shu munosabat bilan musiqa ta’limi o‘quv dasturlariga mintaqaviy xalq qo‘shiqlari va marosim musiqasidan namunalarni kengroq kiritish, ularni folklor ekspeditsiyalari materiallari asosida o‘rgatish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Rajabiy Y., Akbarov I. O‘zbek xalq musiqasi tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
3. Jabborov A. O‘zbek bastakor va musiqashunoslari. – Toshkent: 2004.
4. Qobilova E. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari: darslik. – Toshkent: 2023.
5. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997.
6. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 3 jildlik. – Toshkent: